



## RAVISH SO'Z TURKUMINI MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI.

Narbayeva Xosiyat Adilbek qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim  
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11119358>

### ARTICLE INFO

Received: 27<sup>th</sup> April 2024

Accepted: 29<sup>th</sup> April 2024

Published: 6<sup>th</sup> May 2024

### KEYWORDS

*Ravish, metod, "Blits so'rov",  
strategiya, interfaol metod,  
ravishning ma'noviy guruhlari.*

### ABSTRACT

*Ravish so'z turkumi mavzusini o'quvchilarning o'zlashtirishida biroz qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shunday paytlarda darsni to'g'ri tashkil qilish va turli xil metodlardan foydalanish dars sifatini yaxshilaydi va o'quvchilarning o'zlashtirishini osonlashtiradi.*

Jahon davlatlarida darslar ko'p hollarda audio va video materiallar hamda turli xil interfaol metodlar yordamida o'qitish yuqori samara bermoqda. Yurtimizda yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim sohasida ham zamonaviy metodlar ko'plab qo'llanilmoqda. Dars davomida metodlar bilan ishlashish o'quvchilarning mustaqil fikrlash, o'z fikrini boshqalarga yetkazib berish qobiliyatini rivojlantiradi. Bugungi kunda yoshlarning ko'pchiligi telefonga qaram bo'lib bormoqda. Ularni darsga jalb qilish ham qiyinlashmoqda, shuning uchun ars davomida turli xil qiziqarli va interfaol metodlardan foydalanish kerak, albatta, me'yori bilan.

Sifat predmetning belgisini bildirsa, ravish esa harakat va holatning belgisini bildiradi. Ravish so'z turkumi ma'nosiga ko'ra beshta guruhga bo'linadi. Masalan: Qani. Adolatxon, iz voshga chiqing, *atayin* sizni olib ketgani keldim. Mahkam oftobdan ko'zini qisib, unga qaradi-da, javob o'rniga qo'lini yoydi va *noiloj* kulimsiradi. Men *jo'rttaga* ba'zi gaplarni teskarilikka olib ko'rsam ham, u – churq etmaydir. Ataayin, *noiloj*, jo'rttaga kabo ravishlar maqsad-sabab ravishiga misol bo'ladi. Mulla Turob bilan Mulla Bozor o'limga qarab *mardlaracha* bormoqda edilar. Yo'lchi "do'ppi bozor"dan aravani *arang* olib o'tdi: bu yerda zo'r tiqilinch, ko'pchiligi xotin-qizlar. Bolalarning orasidan *zo'rg'a* qochib chiqdim – dedi Said. Hozir idoraga boroib kelaman, keyin *bafurja* gaplashamiz. *Yakkama-yakka* janglarda sak urug'ining dushmanlarindan ko'p bahodirlarni yer tishlatgan edi. Manzura opa har bir sinfga kirib, bolalarning tozaligi bormi, kundaligi bormi *birma-bir* tekshirib chiqdilar. Uch samovarga *qatorasiga* suv solib, ko'mir tashlab qo'ydi. ... yuqoriga chiqishga qistasa ham, kovishini yechmay, *eskicha* o'tira berdi. Bekor qilayotirsiz, og'a .. men sizga *astoydil* xizmat qilmoqchi edim. "Poyezdga kech qolsamchi" – *tasodifan* kelgan xayoldan cho'chib ketdi. *To'satdan* qattiq shamol turdi. Eshik to'satdan qattiq itarildi. Uzoqda Shoqosimning kim bilandir xirillashgani eshitildi. Eshikning *qo'qqisdan* ochilishi Vali akani cho'chitib yubordi. Men senga *chindan* so'ylayman. Ziyodillaniang

taxminicha, Komil daryodan o'tgan. Qumqishloq guzarigacha *yayov* kelgan. Ota-bola anchagina *jim* bordi. Bu gaplar holat ravishlariga misol bo'ladi. Bu xabar *hozircha* sir tutilmog'i kerak edi. *Endi* deraza ortidan tol novdalari qudratli chinor kabi tebranib turardi nazarida. Dushman oshingni yer, *so'ngra* boshingni yer. "Tuproq olsang, oltin bo'lsin" deb *doimo* onam duo qilardi. Non haqida gap borganda, *hamisha* ko'z o'ngimda yoshligimda bo'lgan voqea gavdalanadi. Oradan qancha yillar o'tsa hamki, *hamon* mana shu hikoya menga tinchlik bermaydi. Es-hushini yo'qotib, garanglangan dehqon *dastlab* indamadi. Qumlarda *qishin-yozin* havo ochiq bo'lib, ko'pincha bulut ko'rinmas, yulduzlar charag'on bo'lar edi. Shakarjon aka *kecha-yu kunduz* ishlab, tandir yasar, ba'zan hammolchilik ham qilar edi. Bu gaplardagi ravishlar payt ravishi hisoblanadi. Xon yonida turga xos navkar qilichini ushlab, beixtiyor bir qadam *olg'a* bosdi. Uy oldida hech kim yo'q, faqat *ichkaridan* bola yig'isi eshitilardi. *Tashqarida* sevalab o'tgan mayin yomg'ir ham tindi. Bu ravishlar o'rin ravishlari hisoblanadi. Mahalliy aholidan allanarsalarni bir necha tuxum va *picha* yoqqa almashtirib oladi. Me'mor boshqa shogirdlaridan ko'ra ham unga - (G'avvosga) o'zgacha iltifot-u ehtirom ko'rsatar, chunki yosh jihatidan *sal* kattaroq edi. Anvar o'z teng bolalar bilan *oz* miloqot qilar, ularga kam aralashar va ortiqcha o'ynab kulmas. Chorbog'dagi daraxtlar ham *ancho*. Bu gaplar ravishning miqdor-daraja ravishlariga misol bo'ladi. <sup>1</sup>Ravish leksema asosan hollovchi vazifasida keladi; ravish leksemashakl ravish leksemaga "hollovchi" sintaktik semasini qo'shib hosil qilinadi: "ravish leksema + "hollovchi" sintaktik semasi = ravish leksemashakl": *darrov javob bermadi, kamtarona bosh egib*, kabi. **Ayrim ravish leksemalar ot leksemaga bog'lanib sifatlovchi vazifasida keladi, kengroq maydon, eng oz miqdor** kabi. **Ayrim ravish leksemalar kesim vazifasida ham ishlatiladi, Uning dushmanlari ko'p** kabi.

<sup>2</sup>Ravish hamisha tilshunoslikda muammoli masalalarda bo'lib kelgan. Uni o'rgangan olim V. V. Vinogradov "mustaqil so'zning hech bir guruhiga sig'may qolgan so'z ravish turkumiga yig'ilgan" deb haqqoniy baho bergan edi. Uning ma'no vazifasi ot, sifat, son, olmoshga yaqint urishi arab va Yevropa tilshunosligida qayd etilgan. Ravish - mustaqil ma'noli o'zgarimas so'z. U belgi, miqdor yoki holatni, o'rin, payt ma'nosini ifodalaydi va u ihati bilan ot, sifat, songa yaqin turadi. Ravishni morfologik tahlil qilishda e'tibor va bilim talab qilinadi. Masalan: *chelak* so'zi alohida kelganda ot so'z turkumiga kirsa u takror qo'llanganda ravish so'z turkumiga kiradi. Bugun kun bo'yi yomg'ir *chelak-chelak* yog'di. Ravish so'z turkumini o'qitishda "Blits so'rov" metodidan foydalanish mumkin. <sup>3</sup>"Blits so'rov" ingliz tilidan olingan bo'lib, tezkor, bir zumda degan ma'noni anglatadi. Bu metod huddi "Aqliy hujum" metodiga o'xshab ketadi. Bu metodda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga savollar beriladi va ular savollarga qisqa va lo'nda javob berishi kerak. Berilgan savollarga jamoaviy, guruhli yoki yakka individual tarzda javob berilishi kerak bo'ladi. Dastlab o'qituvchi mavzu mohiyatini yoritib beruvchi savollar tayyorlab kelishi

<sup>1</sup>Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili - Toshkent: Universitet, 2006

<sup>2</sup> R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abdusalova Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent - 2009.

1. <sup>3</sup> Ro'ziyeva. D., Usmonoyeva. M., Holiqova. Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. - Toshkent 2013

lozim. Ular savollarga qisqa muddat davomida lo'nda javob berishi lozim. Agar o'qivchi berilgan savolga javob berolmasa u guruh bilan javob berishi mumkin bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006
2. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abduzalova Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – 2009.
3. Ro'ziyeva. D., Usmonoyeva. M., Holiqova. Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent 2013.

